IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934
VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

CHO'LPON ASARLARIDA PEYZAJNING BADIIY IFODASI

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti unversiteti 3- bosqich talabasi Berdiyeva Sabina

Annotatsiya: *Maqolada Cho'lpon hikoyalari haqida fikr yuritilgan. Hikoyalarida tabiat tasviri, uning badiiy talqini, vazifasi tahlilga tortilgan. Hikoya kompozitsion sathida peyzajning o'rni, obrazlar ichki dunyosini yoritishdagi poetik funksiyalari misollar orqali asoslangan.*

Kalit so'zlar: *Jadid hikoyachiligi, hikoya janri, badiiy peyzaj, badiiy obraz, badiiy sarlavha, ilk jumla va so'nggi jumla.*

XX asr o'zbek nasrida jadid hikoyachiligining alohida o'rni bor. Buni Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lponlar hikoyalari misolida qaraganda o'ziga xos jihatlari ko'zga tashlanadi. O'z navbatida, yuqoridagi hikoyachilarning ham ijodi o'zaro farqlanadi. Masalan, Abdulla Qodiriy hikoyalarida realistik tasvirning ustunligini ko'rishimiz mumkin. Fitrat hikoyalarida esa diniy syujetlar talqiniga e'tibor qaratiladi. Cho'lponning nasriy asarlarida lirizmning bo'rtib ko'rinishi diqqatni tortadi. Bu uning ham nasr va ham nazmda ijod qilganligi bilan bog'liq. Uning ijodidagi bu xususiyat badiiy peyzaj bilan uyg'unlashib ketgan. Cho'lpon asarlarida tabiat tasviri, ya'ni peyzaj, muhim rol o'ynaydi. Bu uning hikoyalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Quyida Cho'lpon qalamiga mansub ba'zi hikoyalarni ko'rib chiqamiz, biroq oldin peyzaj o'zi nima degan savolga oydinlik kiritib olishimiz darkor.

Peyzaj – tabiat tasviri bo'lib, badiiy asarning g'oyaviy-estetik quvvatini oshirishga xizmat qiladi. Izzat Sulton tabiat tasviri haqida quyidagi fikrlarni qayd etadi: „Badiiy asarda tabiat hodisalari va ko'rinishlari syujetning rivojini tezlatuvchi yoki sekinlatuvchi faktor sifatida ham tasvirlanishi mumkin. Ammo, tabiat manzaralaridan qahramonning ruhiy holatini ochib berish uchun foydalanish badiiy asarda eng ko'p uchraydigan hodisadir". [1, 188, 189] Olimning so'zlaridan ko'rinib turibdiki, yozuvchi tasvirlamoqchi bo'lga qahramonining ruhiy holatiga tabiat tasviri orqali oyna tutadi. Bir so'z bilan aytganda, personaj ruhiy dunyosini moddiy dunyoga ko'chiradi. Shu o'rinda Cho'lponning „Oydin kechalarda", „Qor qo'ynida lola" va „Novvoy qiz" hikoyalarida tabiat tasviri o'ziga xos tarzda ko'zga tashlanadi. E'tibor qiladigan bo'lsak, bu hikoyalarga nom berishda ham yaqqol ko'rinadi.

„Oydin kechlarda" shunday boshlanadi: „Zaynab kampir bir narsadan cho'chib uyg'ondi. Oppoq oydin oy kampir yotqon so'richaning qoq o'rtasidan unda-munda uchragan bitta-yarimta bulutlarni yorub shoshub o'tib borar edi".[3, 282] Hikoyaga tabiat tasviri bilan kiriladi. Badiiy asarning ilk jumlasi asarning bosh g'oyasini – konsepsiyasini belgilab beruvchi eng asosiy qismi hisoblanadi. Cho'lpon bu vazifani tabiat tasviriga yuklaydi.

Birinchi jumlada tasvirlangan peyzaj qahramon obraziga parallel, qarama-qarshi qo'yiladi. Bundan tashqari hikoya obrazlarining ruhiy kechinmalari, ularning ma'noviy syujet chizig'idagi badiiy konfiliktning ramziy tasviri peyzaj yelkasiga yuklanadi. Eng muhimi, ilk jumladagi peyzaj hikoya ohangini taminlovchi soz maqomida turadi. [2, 105]

Hikoyaning bosh qahramoni bo'lgan ikki oylik kelinchakning ruhiy holati shu jumlada ochib beriladi. Kelin bo'lib kelganiga deyarli ikki oy bo'lganiga qaramasdan turmush o'rtog'i bilan ikki kechadan boshqa birga bo'lmagan yosh juvon holati hikoyada bayon etilgan. Oy obrazining yorga

o’xshatilishi an’anaviy mavzulardin biridir. Oyning tunda nur taratib yolgiz kezib yurishi qizning uyqusiz bedor tunlaridan darak beradi. Yolg’iz kelinchak tunlarni g’am-anduhda acchiq ko’zyoshlar bilan o’tkazadi, nafaqat tunni umrini yor visoliga yetishish umidi bilan o’tkamoqda. U (oy) o’z umidi bilan tunni yoritib turibdi. Umidi ham kundan kunga ilinjga aylanib bormoqda, xuddiki, oy ham kamayib borishi singari. Muxtasar qilib aytganda, hikoyadagi ma’noviy syujet chizig’i peyzaj-jumlada ochib berilgan.

„Oydin tunlarda“ kabi „Qor qo’ynida lola“ hikoyasiga ham peyzaj-sarlavha qo’yilgan. Cho’lpon hikoyada yosh bir qizning otasidan ham yoshi ulug’ bir cholga nafaqat chol, balki eshon ham, turmushga chiqqanini tasvirlaydi. Hikoyaning biron yerida Sharofatxonning necha yoshda ekanligi keltirmaydi. Uning taxminan nechaga kirganini biz quyidagi peyzaj boshlanmadan bilib olishimiz mumkin:

Bir, ikki, uch, to’rt… besh; besh… olti! Yetti, sakkiz, to’qqiz, o’n. Kichkina qizil ipdan bezalgan to’p (koptov) aljib qochib ketib, yerto’la og’ilning devoriga yondashib o’sgan yosh qantak o’rikka borib tegdi-da, sakrab hovuzga „sho’p“ etib tushib ham ketdi.

Qizlar barisi birdan:

-Voy, o’laqolay, hovuzg’a tushib ketdi! – deb qichqirib yubordilar. To’pni tutish uchun quvlab borayotg’an Sharofatxon ham hovuz yonida qotib qoldi. [3. 285] Ko’rinib turibdiki, Sharofatxon hali bolalik sho’xliklarini tark etmagan qizaloq. Buni muallif to’g’ridan to’g’ri aytmay, aksincha peyzaj tasvir orqali o’quvchi xayolotida taxminan 14-15 yoshlardagi qizaloqni gavdalantira olgan. Shuningdek asar so’ngida to’ydan keyin bir necha yigitlar va Mamat qorovul dialogini beradi. Mamat qorovul shunday deydi: „…dunyo o’zi shunday teskari dunyo ekan… . Lolaning ustiga qor yog’di“. Adib qizni „lola“ga, otasining piri bo’lmish eshonni esa sovuq „qor“ga qiyoslaydi.

Cho’lpon ijodiga mansub bo’lgan yana bir asar „Novvoy qiz“ hikoyasining ham syujet chizig’ini tabiat tasviri belgilab beradi. Hikoyada yozilishicha, non sotib kun ko’ruvchi bir bokira qiz O’lmasboy ismli pesonaj tomonidan zo’rlanadi. Shusiz ham turmushi og’ir, onasi o’lim to’shagida yotgan qizning hayoti yanada qiyinlashadi. Nomusi toptalgan qizning o’z tajovuzkoriga nisbatan ruhiyatida kechayotgan o’zgarishlarni mulallif tabiat hodisasi misolida tasvirlashga harakat qiladi: „Dengiz shu qadar buyukligi bilan hamma vaqt qirg’oqlardan yengiladi. Achchig’i kelganda, g’azabi qaynaganda zo’r-zo’r to’lqinlar, kichik-kichik mavjlarni qirg’oqning tosh metin gavdasiga qaratib otadi. Qirg’oq yuqorilarga ko’tarilib ketgan marmar qirg’oq koshki pinagini buzsa! Bechora to’lqinlar, mavjlar sinib mayda-mayda bo’lib, yana dengizning ko’ksiga tushadi. Dengiz ularni yana silab-siypab boshini bir yerga qovushtirib, to’plab, yana qirg’oqqa otadi. Yana bo’linish, yana parchalanish… tuganmas olishish“. [3, 293] Odatda dengiz haybat timsoli sifatida qo’llaniladi, hikoyada esa ojiz qizga o’xshatiladi. Shu o’rinda nega Cho’lpon onasidan ayrilish arafasidagi, iffati bulg’angan nochor qizni „dengiz“ obrazi orqali ta’riflamoqda degan savol tug’uladi. Chunki, yuqorida aytib o’tkanimizdek, Cho’lpon ham nasrda va ham nazmda birdek ijod qilgan ijodkordir. Uning nasriy asarlariga nazm o’z ta’sirini o’tkazmasdan qolmagan. Chunonchi, „Novvoy qiz“ hikoyasida kelgan peyzajlarda ham lirik bo’rttirishlar yaqol sezlib turadi. Oldingi hikoyalardan farqli ravishda „Novvoy qiz“ hikoyasiga yakun yasovchi butun boshli bir motiv, ya’ni sud motivi, tabiat tasviri bilan berilgan va ana shu peyzaj hikoyaga yakun yasaydi: „Yana sud bo’lganda… Dengiz – qiz qullarday jim turib so’zladi. Qirg’oq – O’lmas tog’larday tinch turib tingladi. Qirg’oq ag’darildi. Tog’ yiqildi. Dengiz mavjlari va to’lqinlarini quchog’iga olib, ularni qirg’oqlardan saqlash, qo’riqlash qayg’isiga botdi“. [3, 297]

VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

Xulosa qilib aytganda, Cho'lpon hikoyalaridagi tabiat tasviri na'munlari ba'zi o'rinlarda lirik mubolag'alardan holi bo'lmas-da, hikoylarini ochib beruvchi, ma'noviy syujet chizig'ini shakillantiruvchi hamda ularni xulosalovchi asosiy unsur bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Иззат Султон Адабиет назарияси. – Укитувчи. Тошкент.1996.
2.Komiljon Hamrayev. „Hikoya kommpozitsiyasi" – Toshkent. 2020.
3. Чулпон. Асарлар. II жилд. – Хазина. Тошкэнт. 1993.

WORDLY
KNOWLEDGE